

**MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA DEMOGRAFIK
JARAYONLARNING MEHNAT BOZORIGA TA`SIRI**

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabalari

Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li

Yaqubova Nilufar Ulug'bek qizi

Annotatsiya: ushbu maqola mehnat bozori nima ekanligi, uning ishlash strukturasi, aholiga ta'siri haqida, shuningdek, demografik jarayonlarning mehnat bozoriga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. O'zbekiston va qator boshqa mamlakatlar demografiyasi va mehnat bozori haqida haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, demografiya, iqtisod, Tovar, taflik, struktura, tadbirkor, infratuzilma, aholi, kasb, kadrlar.

Аннотация: в данной статье подробно рассматривается, что такое рынок труда, его структура деятельности, влияние на население, а также то, как демографические процессы влияют на рынок труда. Обсуждаются демография и рынок труда Узбекистана и ряда других стран.

Ключевые слова: рынок труда, демография, экономика, товары, экономика, структура, предприниматель, инфраструктура, население, профессия, персонал.

Abstract: this article discusses in detail what the labor market is, its performance structure, its impact on the population, and how demographic processes affect the labor market. Demographics and labor market of Uzbekistan and a number of other countries are discussed.

Key words: labor market, demography, economy, goods, economy, structure, entrepreneur, infrastructure, population, profession, personnel.

Mehnat bozori — ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorning ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o'rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorning infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldi-sotdisi bevosita haridor bilan sotuvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldi-sotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o'rtasida mehnatning kelishilgan narxi — ish haqidir.

Mehnatga talab uning narxi bo'lmish ish haqi miqdoriga nisbatan teskari mutanosiblikda, ya'ni ish haqi oshsa mehnatga talab qisqaradi, agar u pasaysa,

mehnatga talab oshadi. Mehnat bozoridagi mehnat taklifi ish haqiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Moddiy muhtojlik sharoitida ko'p ishlab, ko'p pul topishga intilish mehnat taklifini oshiradi.

Mehnat bozorida mehnatga talab taklifdan oshib ketsa ish kuchi taqchilligi, mehnat taklifi talabdan ko'p bo'lsa ishsizlik paydo bo'ladi.¹

Mehnat bozori, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda ishchi kuchi va ish beruvchilar o'rtasida ish joylari savdosi amalga oshiriladi.

Bu bozorning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Ishchi kuchi taklifi: Ishchi kuchi taklifi ishchilar tomonidan taqdim etiladi. Bu bozorni har qanday darajada malakaga ega bo'lgan ishchilar tashkil etadi. Ular ish joylarini qidirishadi va o'z mehnatlarini taklif qilishadi.

Ishchi kuchi talabi: Ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi talab etiladi. Bu talab kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan yaratiladi, ular o'z ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun ishchilarga muhtoj.

Maosh va ish sharoitlari: Mehnat bozorida muhim o'rinni egallaydi. Maosh ishchilarga mehnatlari uchun to'lanadigan haq bo'lib, bu haqni belgilashda mehnat bozorining taklif va talab balansiga bog'liq omillar hisobga olinadi.

Mehnat bozorining segmentatsiyasi: Mehnat bozori turli segmentlardan iborat bo'lib, ular malaka darajasi, sanoat tarmoqlari, geografik joylashuv kabi ko'plab omillarga qarab farqlanadi.

Qonunchilik va tartibga solish: Hukumatlar mehnat bozorini tartibga solish uchun qonunlar va qoidalarni belgilaydi. Bu mehnat xavfsizligi, minimal maosh, ish vaqti va boshqa me'yorlarni o'z ichiga oladi.

Ishsizlik va ish o'rinlari yaratish: Mehnat bozori ish o'rinlari va ishchi kuchi o'rtasidagi balansni aks ettiradi. Ishsizlik darajasi bu balandlik darajasini o'lchash uchun ishlatiladi.

Ta'lim va malaka oshirish: Ishchi kuchining malakasini oshirish va rivojlantirish mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi. Bu turli treninglar va ta'lim dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Mehnat bozorining barqaror va samarali ishlashi iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, hukumatlar va tashkilotlar mehnat bozorini rivojlantirish va boshqarish uchun turli siyosat va strategiyalar ishlab chiqadilar.

Mehnat bozorining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

Ishchi kuchi taklifi: ishchilar yoki mehnatga yaroqli shaxslar tomonidan taqdim etilgan mehnat resurslari.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_bozori

Ishchi kuchi talabi: ish beruvchilar tomonidan kerak bo'lgan ishchi kuchi.

Ish haqi darajasi: mehnat bozorida belgilangan mehnatga to'lanadigan haq miqdori.

Ishsizlik darajasi: ish topishni istagan, lekin ish topolmagan ishchilarning ulushi.

Mehnat bozori o'z ichiga iqtisodiy omillar, davlat siyosati, texnologik o'zgarishlar va demografik o'zgarishlar kabi ko'plab omillarni oladi. Bu bozorning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotning umumiy holati va odamlarning turmush darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

- Mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bilan taklifni mos kelmasligi;
- Kadrlar tayyorlashda ish o'rinlarining murakkabligini hisobga olinmasligi;
- Kadrlar tayyorlashda sifatni ta'minlash;
- Yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish holati;
- "Ishga joylashtirish" dagi tadbirlar;
- Mehnatga haq to'lash tizimi;
- Kasbning shaxsga va shaxsning kasbga qo'yilgan talablari to'liq emasligi;
- Xotin-qizlarni kasbga tayyorlash;
- Tadbirkorlikka yo'naltirilgan ta'lim.

Barchamizga ma'lum, necha yillardan beri davlatlar ishsizlikka qarshi yangi chora tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Lekin shunga qaramay demografik joylashuv, iqlim va shunga o'xshgan ba'zi bir sabablar borki? Buning aktual yechimini topishning ilojisi bo'lmay kelmoqda. Yuqorida sanab o'tganlarimiz mehnat bozorining rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Albatta, bu yaxshi. Lekin buning teskari tomoni ham bor. Hududiy kesimlarni oladigan bo'lsak. Bizda ya'ni O'zbekiston hududida ba'zi viloyatlar borki, ularning migratsiya darajasi juda yuqori. Hududiy iqlimi ham ozgina noqulayliklarni tug'dirib chiqaradi. O'troq aholisi ham ichki yoki tashqi migratsiyaning paydo bo'lish darajasini yildan – yilga ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bunda tub aholi aybdormi yoki, mehnat bozori (ya'ni bandlik)? Bunda har ikkala tomon aybdor emas. Hududiy kesimlarni demografik jarayonlarini o'rganib bu muommoning yechimini toppish harakatidagi mutasaddilar, tadbirkorlikni shu hududda rivojlantirish yuqoridagi muommoga yechim bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishgan.

Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Lekin bularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo'lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson

kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin. Ma'lumot uchun, Jahon bankining 192 mamlakatda o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda jismoniy kapital umumiy boylikning 16 foizini, tabiiy kapital 20 foizni, inson kapitali esa 64 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va Shvesiyada inson kapitali ulushi 80 foizga yetadi, Rossiyada esa atigi 14 foizni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda esa undan ham past daraja saqlanib qolmoqda.²

Biz biroz avval O'zbekiston hududidagi demografik jarayonlarni mehnat bozoriga ta'sirini ko'rib chiqqan edik. Yuqoridagi ma'lumotlar esa, duning qator mamlakatlari haqidagi demografiyaning mehnat bozoriga ta'siri haqida.

Xulosa: Mamlakatlardagi mummolarning asosiy qismi aholining bandligi ta'minlanmaganlikdan kelib chiqadi. Buning uchun davlat har bir fuqorosini bandlik bilan ta'minlashi kerak. Tadbirkorlik obyektlarini ko'paytirish orqali. Ham mehnat bozorining rivojlanishiga hissa qo'shiladi, ham aholining bandligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_bozori
2. <https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/demografik-jarayonlarning-mamlakat-iqtisodiy-taraqqiyotiga-ta-siri-2/>
3. Yaqubova Nilufar Ulug'bek qizi iqtiboslari

² <https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/demografik-jarayonlarning-mamlakat-iqtisodiy-taraqqiyotiga-ta-siri-2/>